

## MATBUOT XABARI

### **Issiqxona gazlari emissiyasini 500 ming tonnaga kamaytirganligi uchun O‘zbekistonga 7,5 mln dollarlik “uglerod moliysi” berildi**

**Toshkent, 21-iyun 2024-yil** – Energetika sektorida emissiyalarni kamaytirish bo‘yicha hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida erishgan natijalarini evaziga O‘zbekiston Jahon bankidan to‘lov qabul qilgan dunyodagi birinchi davlat bo‘ldi. Bu Jahon bankining mamlakatga energiya samaradorligini oshirish, energiya subsidiyalarini qisqartirish va toza energiya manbalariga o‘tishga ko‘maklashuvchi [“O‘zbekistonda energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” \(iCRAFT\)](#) loyihasi doirasida amalga oshirildi. Ushbu turdagи loyiha Bank tomonidan dunyoda birinchi marotaba amalga oshirilmoqda.

Xususan, iCRAFT loyihasi doirasida 500 ming tonnalik issiqona gazlari emissiyasi muvaffaqiyatliligi kamaytirilgani natijasida Jahon bankining Transformatsion uglerod aktivlari jamg‘armasi (TCAF) O‘zbekistonga 7,5 million dollar miqdorida grant ajratdi. Ushbu natijalarni uchinchi tomon mustaqil ravishda tasdiqladi.

**Jahon bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli** mamlakatni ushbu muhim yutuq bilan tabrikлади: “Ushbu tashabbus hukumatlarning energetika sohasidagi islohotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun iqlim moliyalashtiruvni doirasida foydalilanligan dunyodagi birinchi loyiha. iCRAFT loyihasi O‘zbekistonga xalqaro uglerod bozorlarida issiqxona gazlari emissiyalari savdosi bo‘yicha individual operatsiyalardan ushbu sohada dasturiy (tizimli) yondashuvga o‘tishda yordam berishga qaratilgan. Umid qilamizki, ushbu pilot loyiha milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham islohotlar o‘tkazish uchun namuna bo‘lishi, shuningdek, dunyoning boshqa mamlakatlarida ham ana shunday amaliyotni joriy etishda namuna bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda”.

O‘zbekiston hukumati iCRAFT loyihasi orqali qabul qilingan mablag‘larning bir qismini elektr va gaz tariflari oshishi sabab moliyaviy ahvoli og’irlashgan oilalarga yordam ko‘rsatish uchun yo‘naltirish majburiyatini oldi. Bundan tashqari, loyiha mablag‘lari O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energetika sohasini isloh qilish bo‘yicha davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo‘sadi.

**O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorov** iqlimni moliyalashtirish doirasidagi ushbu kelishuv ahamiyatini qayd etdi: “*O‘zbekiston iCRAFT loyihasi doirasida olgan birinchi to‘lov mamlakatning energetika sohasiga ajratilgan subsidiyalarini kamaytirishga va soha tushumlari o‘z harajatlarini qoplashiga erishish maqsadi sari qo‘yilgan muhim qadamdir. Shuningdek, bu iqtisodiy o‘sishga va kambag‘allikni qisqartirishga yordam beruvchi “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha hukumatning kengroq sa‘y-harakatlariga hissa qo‘sadi*”.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Energetika vazirligi O‘zbekistonda energiyatejamkorlik va atmosferaga issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga zamin yaratadigan energetika sohasi islohotlari uchun mas’uldir. *“ICRAFT innovatsion loyihasi doirasida “uglerodli moliya” (CO2-ekvivalentida o‘lchanadigan issiqxona gazlari emissiyasining kamaytirilishi) olish orqali O‘zbekiston iqtisodiyotning toza energiyaga o‘tishi jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, loyiha mamlakatning xalqaro uglerod bozorlaridagi tranzaktsiyalarda faol ishtiroy etuvchi mintaqaviy yetakchi sifatidagi rolini mustahkamlashga yordam beradi”*, — dedi **O‘zbekiston energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamaxmudov**.

iCRAFT loyihasi O‘zbekiston hukumatiga tegishli infratuzilma, tizimlar, mexanizmlar va hujjatlarni ishlab chiqishda yordam beradi, bu esa mamlakatni kelajakda boshqa xalqaro hamkorlar va xususiy investorlar ko‘magida uglerod bozorida shunga o‘xshash xalqaro operatsiya tashabbuslarini amalga oshirishga tayyorlaydi.

iCRAFT loyihasi mamlakatning Parij kelishuvi 6-moddasi bo‘yicha olgan majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, hisobot berish va tekshirish mexanizmini ishlab chiqishga yordam beradi. Yuqorida tilga olingan xalqaro shartnomaning maqsadi – dunyo bo‘ylab issiqxonalar gazlari emissiyasini kamaytirish orqali global haroratning oshishini cheklashdan iborat.

Shuningdek, iCRAFT loyihasi O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishiga global javob berish bo‘yicha Parij kelishuvi doirasidagi Milliy miqyosda belgilangan hissa maqsadlariga erishish uchun iqlimni moliyalashtirish bo‘yicha xalqaro jarayonlarda faol ishtirot etishiga yordam beradi.

iCRAFT loyihasini amalga oshirishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Energetika vazirligidan tashqari O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Gidrometeorologiya xizmati agentligi (O‘zgidromet) ham ishtirot etmoqda.

Yuqorida keltirilgan to‘lov O‘zbekiston hukumati va Jahon banki o‘rtasida iCRAFT loyihasi doirasida tuzilgan Qisqartirilgan emissiyalarini sotib olish shartnomasi bo‘yicha kutilayotgan bir nechta transhlarning birinchisidir. Bitimga ko‘ra, mamlakat energetika sektorini isloh qilish natijasida emissiyalarini, mustaqil ravishda tasdiqlangan holda, qisqartirganligi uchun 20 million dollargacha grant mablag‘lari yoki “uglerod moliyalarini” olishi mumkin bo‘ladi.

iCRAFT loyihasini amalga oshirish davomida O‘zbekiston 60 million tonna issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishni rejallashtirmoqda. Shundan 2,5 million tonnaga yaqin issiqxona gazlari loyiha doirasida mamlakatdan xarid qilinadi. O‘zbekiston qolgan uglerod birliklarini iCRAFT loyihasini amalga oshirish jarayonida yaratilgan va sinovdan o‘tkazilgan tizim va mexanizmlar yordamida xalqaro uglerod bozorlarida sotishi mumkin bo‘ladi.

## TCAF haqida

Jahon banking Transformatsion uglerod aktivlari jamg‘armasi (TCAF) rivojlanayotgan mamlakatlarga o‘zlarining Milliy pog‘onalarda aniqlanadigan hissalarini amalga oshirishda yordam beradi. Iqlim o‘zgarishini yumshatish bo‘yicha alohida chora-tadbirlardan tashqari jamg‘arma mamlakatlarga issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishni yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha hukumat siyosati va tarmoq dasturlari bilan bog‘lash imkonini beruvchi innovatsion uglerod metodologiyalarini ishlab chiqadi. Jamg‘arma salohiyatni rivojlanirish, natijalarga asoslangan iqlimni moliyalashtirish (RBCF) va xalqaro uglerod bozorlarini moliyalashtirishning noyob uyg‘unligini taklif qiladi. RBCF orqali jamg‘arma rivojlanayotgan mamlakatlarning iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini kengaytirish, past uglerodli texnologiyalarga xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, moliyaviy bo‘shliqlarni yopish va uglerod bozorlariga kirishni ta‘minlash bo‘yicha harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Kanada, Germaniya, Norvegiya, Ispaniya, Shvetsiya, Shveytsariya va Buyuk Britaniya hukumatlari, shuningdek, Climate Cent Foundation (Shveytsariya) jamg‘arma faoliyati uchun zarur moliyaviy yordam ko‘rsatgan.

**Bog'lanish uchun**

**Toshkent**

Mirzo Ibragimov

[mibragimov@worldbank.org](mailto:mibragimov@worldbank.org)

**Vashington**

Sona Panajyan

[spanajyan@worldbank.org](mailto:spanajyan@worldbank.org)